

12-Mavzu: Gipermurojaatdan foydalanish. Taqdimot slaydlarini boshqarish.

Reja:

1. Gipermatn tushunchasini yaratilishi.

2. Taqdimotlar muharirlari, ularning vazifasi va imkoniyatlari.

3. Standart shablonlar asosida taqdimootlar yaratish. Taqdimot slaydlarini boshqarish.

1960 yillarning oxirida **Ted Nelson** ismli olim gipermatn tushunchasini yaratdi. Bu kontsepsiya butun olam to'ring asosini tashkil etadi. Unda xujjatlar va sahifalar orasida bog'lanishlar ko'zda tutilganligini alohida ta'kidlab o'tish kerak.

Nelson axborotni o'rganishning yangi usulini taklif qildi. U o'quvchiga ma'lumotlarni kitobdagi kabi ketma-ket joylashgan tarzda emas, balki o'quvchiga qulay bo'lgan va zarurat tug'ilganda turli joylarda joylashgan sahifalarga ham o'ta olish imkoniyatiga ega bo'lgan tarzda tasvirlashni hojlagan edi. Bu usulda kitobni boshidan oxirigacha o'qish va axborotni ketma-ket o'zlashtirish o'rniga o'quvchi o'zi tushunmagan biror so'zni ajratib olishi va bu so'z haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'lishi mumkin.

Nelson o'zi taklif etgan usulni quyidagicha tasavvur qilgan edi. Masalan, konstitutsiyani o'qib turib saylov tizimi tushunchasiga duch keldingiz, shu erdan boshqa xujjatni ochib, saylov tizimi qanday ishlashi haqidagi batafsil ma'lumotlarni olasiz.

U erdan saylov tizimining tashkil etilgan paytidan hozirgi kungacha bo'lgan tarixi aks etgan xujjatga o'tasiz. Bu xujjatdan sobiq prezidentlardan birining tarjimai holiga o'tdingiz. U erda prezidentning sevimli mushugi haqida o'qib turib, hayotingizdagi birinchi mushukni qanday boqishga bag'ishlangan xujjatga, bu xujjatning paypoqlar va mushuklar to'g'risida gap borgan qismidan paypoqlarga bag'ishlangan boshqa xujjatga va xokazolarga o'tishingiz mumkin. Nihoyat, o'qishni tugatganingizda saylov tizimiga umuman aloqasi yo'q, lekin siz qiziq va foydali, deb hisoblagan ma'lumotda to'xtaysiz.

Bu esa hozirgi kunda internetda foydalaniladigan gipermatnning o'zginasidir. **Tim Berners-Li** olimlar tarmoq orqali o'z ilmiy ishlarini tarqatishlarining oson usulini yaratish haqida o'ylaganda ham, balki shu narsalar uning hayolidan o'tgandir. Uning maqsadi, olimlarning izlanishlari haqidagi hujjatlarning biridan ikkinchisiga o'tish va ularning ishlari haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lish imkonini beradigan tizimni yaratish edi. Shu tariqa gipermatn dunyoga keldi.

Slayd - ma'lum bir ulchamga ega bo'lgan muloqot varaqlari hisoblanadi. Unda biror maqsad bilan yaratilayotgan namoyish elementlari joylanadi. Slaydlar ketma-ketligidan iborat tayyor ko'rgazmani kompyuter ekranida, videomonitorda, katta ekranda namoyish qilish mumkin. Ko'rgazmani tashkil qilish - slaydlar ketma-ketligini loyixalash va jixozlash demakdir.

Taqdim etish axborot texnologiyasining samaradorligi ko'p jihatdan taqdim etuvchi shaxsga, uning umumiy madaniyati, nutq madaniyati va x.k.larga bog'liq ekanligini xam unutmaslik lozim. Power Point dasturi MICROSOFT firmasining WINDOWS qobigi ostida yaratilgan bo'lib, ushbu dastur prezentatsiyalar (taqdimot qilish, ya'ni tanishtirish) bilan ishlash uchun eng qo'lay bo'lgan dasturiy vositalardan biridir. Bu dastur orqali barcha ko'rgazmali qurollarni yaratish va ba'zi joylarda esa ma'lumotlar bazasi sifatida xam qo'llash

mumkin. Ayrim xollarda bu dasturdan multimedia vositalarini boshqarish va ularni qo'llab, namoyish etuvchi qurilmalarga yuborish vazifalarini xam bajarish mumkin. Dasturdagi asosiy tushunchalar bu - slayd va prezentatsiya tushunchalaridir. Prezentatsiya(taqdimot) - yaratilayotgan slaydlar turkumi va uni namoyish etish uchun beriladigan fayl nomi. Masalan: Prezentatsiya1 - PowerPoint dasturi ochilganda, sarlavxalar qatorida paydo bo'lib, yaratilgan yoki yaratilayotgan taqdimotning ayni vaqtdagi nomi hisoblanadi. Bu nomni keyinchalik o'z xoxishingizga ko'ra almashtirishingiz mumkin.

PowerPoint dasturini ishga tushirish. Bu dasturni ishga tushirishni WINDOWS ish stolidan boshlash zarur. Ish stolidagi quyidagi buyruqlarni bajarish orqali dastur ishga tushiriladi: "Пуск" - "Программы" - "Microsoft PowerPoint" Bu muloqot darchasi orqali taqdimot yaratish turini tanlab olish mumkin bo'ladi. quyidagi 4 ta asosiy bo'lim berilgan, ularning xar biri haqida qisqacha tuxtalib o'tamiz.

Har bir foydalanuvchi dasturda ish olib borishi uchun yo'qoridagi bo'limlardan birini o'z maqsadiga ko'ra tanlab oladi. Dastur ishini Bo'sh taqdimotdan xam boshlash mumkin. Buning uchun sichqoncha ko'rsatkichi "Пустую презентацию" (Bo'sh taqdimotni) bo'limiga olib kelinadi va "OK" tugmasi bosiladi. Bunda quyidagi muloqot darchasi xosil bo'ladi. Bu erda ko'rsatilgan har bir slaydni tanlab olish imkoniyati bor. Buning uchun yunalish tugmalari yoki sichqonchadan foydalanish mumkin. Muloqot darchasidan kerakli xolat, masalan: "Пустой слайд" (Bo'sh slayd) ko'rinishi tanlanadi va "OK" tugmachasi bosiladi. Bu amallar bajarilgandan sung PowerPoint dasturining asosiy oynasi xosil bo'ladi U sarlavxalar qatori, gorizontal menyu, uskunalar paneli ("Стандарт", "bichimlash" va rasmlar bilan ishlash), rejim (xolat) tugmachalari (slaydlar rejimi, strukturalar rejimi, saralash rejimi, namoyishlar rejimi) va ishchi maydonni o'z ichiga oladi. Power Point ekranining pastki chap burchagida ish rejii va uning turlarini boshqaruvchi tugmachalar (piktogrammalar) guruxi joylashgan. PowerPointdan chiqish uchun "Fayl" menyusidan "Выход" ("Chiqish") buyrugi tanlanadi. Taqdimotlar yaratish va ularni tomosha qilishga mo'ljallangan dastur bo'lib, Microsoft Officening bir qismi hisoblanadi va Microsoft Windows, macOS tizimlarida ishlash imkoniyatiga ega. Power Pointda yaratilgan taqdimotlar proyektor yordamida katta ekranlarda yoki katta o'lchamli televizion ekranlarda ko'rishga mo'ljallangan. Microsoft Power Point 97 - universal, imkoniyatlari keng bo'lgan, ko'rgazmali grafika amaliy dasturlari sirasiga kiradi va matn, rasm, chizma, grafiklar, animatsiya effektlari, ovoz, videorolik va boshqalardan tashkil topgan slaydlarni yaratish imkonini beradi.

Uyga vazifa: Taqdimot namoishini boshqarishni o'rganish.